

## O‘QUVCHILAR EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MAKTAB-OILA HAMKORLIGI MODELLARINING NAZARIY ASOSLARI

**Shoymatova Gulnoza**

*Gulison davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi.*

**Asatullayeva Dilnura**

*Gulison davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida maktab va oila hamkorligining ahamiyati, uning nazariy asoslari hamda samarali modellar tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik tarbiya jarayonida interaktiv usullar va hamkorlik shakllarining o'rni yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, maktab-oila hamkorligi, pedagogik model, barqaror rivojlanish, ekologik ong, tarbiyaviy institut, interaktiv yondashuvlar, pedagogik konsepsiyalar, fuqarolik pozitsiyasi.*

**Abstract:** *This article analyzes the importance of school-family cooperation in the process of forming an ecological culture in students, its theoretical foundations and effective models. It also highlights the role of interactive methods and forms of cooperation in the process of ecological education.*

**Keywords:** *ecological culture, ecological education, school-family cooperation, pedagogical model, sustainable development, ecological awareness, educational institute, interactive approaches, pedagogical concepts, civic position.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется значение сотрудничества школы и семьи в процессе формирования экологической культуры у учащихся, его теоретические основы и эффективные модели. Также освещается роль интерактивных методов и форм сотрудничества в процессе экологического образования.*

**Ключевые слова:** *экологическая культура, экологическое образование, сотрудничество школы и семьи, педагогическая модель, устойчивое развитие, экологическая осведомленность, образовательное учреждение, интерактивные подходы, педагогические концепции, гражданская позиция.*

## KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida ekologik muammolar tobora kuchayib borayotgan bir paytda yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda nafaqat maktab, balki oila ham muhim tarbiyaviy institut sifatida ishtirok etadi. O‘quvchining ekologik qarashlari, munosabati va xulq-atvori aynan shu ikki muhitning o‘zaro hamkorligi natijasida shakllanadi.

### **Ekologik madaniyat tushunchasining nazariy asoslari**

Ekologik madaniyat — bu insonning tabiatga mehr bilan, ehtiyotkor va mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishidir. Oddiy qilib aytganda, bu tabiatni asrashni bilish, uni tushunish va unga zarar yetkazmaslikka harakat qilishdir. Ekologik madaniyat har bir inson hayotida muhim o‘rin tutadi, ayniqsa bolalikdan boshlab uni shakllantirish juda zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ekologik tarbiya maktab va oila hamkorligida olib borilsa, yanada samarali bo‘ladi. Chunki bola nafaqat darsda, balki uyda ham tabiatga qanday munosabatda bo‘lishni o‘rganadi. Shu orqali bolalarda tabiatga nisbatan ongli qarash va mas’uliyat hissi paydo bo‘ladi. U quyidagi komponentlardan iborat:

- ekologik bilimlar (tabiat qonuniyatlarini tushunish);
- ekologik tafakkur (tahlil qilish va xulosa chiqarish);
- ekologik xulq-atvor (tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish);
- ekologik mas’uliyat (atrof-muhitni asrashga intilish).

Pedagogik jihatdan qaraganda, ekologik madaniyatni shakllantirish asta-sekin va muntazam olib boriladigan jarayon bo‘lib, bunda o‘quvchilarning faol ishtiroki juda muhim hisoblanadi.

### **Maktab va oila hamkorligining mohiyati**

Maktab va oila hamkorligi — bu bolani har tomonlama rivojlantirish uchun birgalikda olib boriladigan ishdur. Ya’ni, bola bilimli, odobli va yaxshi xulqli bo‘lib ulg‘ayishi uchun maktab va oila bir-biriga yordam beradi. Bu hamkorlik ta’lim va tarbiyaning muhim qismi hisoblanadi, ayniqsa bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Maktab va oila birgalikda ishlasa, bolalarda tabiatga to‘g‘ri munosabat, mas’uliyat va yaxshi xulq-atvor tezroq shakllanadi. Oila bolaga tabiat haqida dastlabki tushunchalarni beradi, maktab esa bu bilimlarni yanada boyitib, tartibli ravishda rivojlantiradi.

### **Maktab-oila hamkorligi modellarining nazariy tahlili**

Nazariy tahlillarda maktab-oila hamkorligining bir necha asosiy modellari ajratib ko‘rsatiladi:

1. An’anaviy model-bunda asosiy tashabbus maktab tomonidan amalga oshiriladi. Ota-onalar ko‘proq axborot oluvchi, ya’ni passiv ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bu modelda ota-onalar yig‘ilishlari, ma’ruzalar va yozma xabarlar orqali hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Nazariy

jihtadan ushbu model bir tomonlama kommunikatsiyaga asoslangan bo‘lib, o‘quvchining ekologik madaniyatini shakllantirishda yetarli darajada samarali emas, chunki unda oila faolligi cheklangan.

2. Hamkorlik modeli-bu modelda maktab va oila teng huquqli hamkorlar sifatida faoliyat yuritadi. O‘zaro muloqot, fikr almashish va birgalikdagi faoliyat asosiy o‘rin tutadi. Nazariy asos sifatida ijtimoiy-pedagogik hamkorlik konsepsiyasi xizmat qiladi. Ushbu model o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda samaraliroq bo‘lib, ota-onalarning faol ishtiroki ta‘minlanadi.

3. Integrativ model-bu jarayonda nafaqat maktab va oila, balki jamiyat ham muhim rol o‘ynaydi. Ya‘ni, bola tarbiyasida hamma birgalikda ishtirok etadi. Shu sababli bu ishlar tartibli va bir-biriga bog‘liq holda olib boriladi. Bunday yondashuv orqali bolalar nafaqat darsda, balki atrofdagi muhitda ham tabiatni asrashni o‘rganadilar. Turli ekologik tadbirlar, jamoa bo‘lib bajariladigan ishlar va foydali tashabbuslar orqali ularning amaliy faoliyati yanada kengayadi. Natijada, o‘quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabat va mas‘uliyat hissi kuchli shakllanadi. Shu bois bu usul eng samarali yo‘llardan biri hisoblanadi.

4. Innovatsion hamkorlik modeli-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadi. Bu modelda ota-onalar va maktab o‘rtasidagi aloqa turli raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, onlayn suhbatlar, virtual loyihalar, elektron kundaliklar orqali hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Nazariy jihatdan bu model ochiqlik, tezkorlik va qulaylik tamoyillariga asoslanadi.

Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir modelning o‘ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud. An‘anaviy model soddaligi bilan ajralib tursa-da, zamonaviy talablarni to‘liq qondira olmaydi. Hamkorlik modeli esa o‘quvchi rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, biroq uni samarali tashkil etish uchun yuqori darajadagi tashkiliy ishlar talab etiladi. Integrativ model eng mukammal yondashuv bo‘lib, u keng qamrovli ta‘sirga ega, lekin ko‘p resurs va vaqt talab qiladi. Innovatsion model esa zamonaviy sharoitda juda dolzarb bo‘lib, ayniqsa masofaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda o‘quvchilarda ekologik madaniyatni qanday shakllantirishni o‘rganishda turli yondashuvlardan foydalanildi. Bunda har bir o‘quvchiga alohida e‘tibor berish, hamda barcha jarayonlarni bir-biri bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish muhim deb hisoblandi. Tadqiqot davomida ta‘lim va tarbiya jarayoni bir butun tizim sifatida qaraldi. Unda maktab va oila hamkorligi bir-birini to‘ldiradigan va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan muhim qismlar sifatida tushuntirildi. Natijada, tanlangan usullar yordamida o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining ahamiyati keng va tushunarli tarzda yoritib berildi.

### ASOSIY MANBANING TANLANISHI

Mazkur tadqiqotda foydalanilgan manbalarni tanlash jarayoni ilmiylik, ishonchlilik va dolzarflik mezonlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot mavzusining murakkab va ko‘p qirrali ekanligini inobatga olgan holda, manbalar bir necha yo‘nalishlar kesimida saralandi.

Avvalo, ekologik madaniyat va ekologik tarbiya masalalariga oid fundamental ilmiy tadqiqotlar asosiy manba sifatida tanlandi. Bu turdagi manbalar o‘quvchilarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslarini ochib berishga xizmat qiladi. Maktab va oila hamkorligi masalasini yoritishda zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, ilmiy maqolalar hamda amaliy tajribalar aks etgan manbalarga murojaat qilindi. Bu manbalar orqali hamkorlik modellarining turlari, ularning afzallik va kamchiliklari hamda amaliy qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilindi.

### NATIJARLAR

Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda maktab-oila hamkorligining samaradorligi tahlil qilindi va bir qator muhim natijalarga erishildi.

Avvalo, dastlabki diagnostika natijalari o‘quvchilarning ekologik bilim va ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatdi. Xususan, ko‘pchilik o‘quvchilarda ekologik tushunchalar yuzaki bo‘lib, ularning kundalik xulq-atvorida ekologik madaniyat elementlari yetarli darajada namoyon bo‘lmasligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari davomida maktab va oila hamkorligiga asoslangan maxsus model joriy etildi. Ushbu model doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ota-onalar bilan ekologik mavzuda suhbat va seminarlar tashkil etildi;
- o‘quvchilar ishtirokida ekologik loyihalar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi;
- “oila–maktab–o‘quvchi” uchligi asosida hamkorlik faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa hamkorlik va integrativ modellar an’anaviy modelga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo‘ldi. Bu modellar orqali o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ekologik mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasi ham shakllandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktab-oila hamkorligiga asoslangan yondashuv o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi.

### MUHOKAMA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda maktab-oila hamkorligining muhim pedagogik omil ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ekologik tarbiya samaradorligi bevosita o‘quvchining atrof-muhitdagi ijtimoiy muhitiga, ayniqsa, oila va maktab o‘rtasidagi uzviy aloqalarga bog‘liq.

Tajriba natijalarining ijobiy dinamikasi shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar ekologik bilimlarni faqat nazariy emas, balki amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirganda yanada barqaror natijalarga

erishiladi. Ayniqsa, oila a’zolarining bu jarayonga jalb etilishi o’quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ekologik xulq-atvorni kundalik odatga aylantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, ota-onalarning ekologik savodxonlik darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Agar ota-onalarda ekologik tushunchalar yetarli darajada shakllanmagan bo’lsa, bu o’quvchining rivojiga ham bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli ekologik tarbiya jarayonida faqat o’quvchilar bilan emas, balki ota-onalar bilan ham tizimli ishlash zarurligi isbotlandi.

Tahlillar shuni ko’rsatdiki, integrativ model asosida olib borilgan ishlar o’quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda eng yuqori natijalarni berdi. Bu model maktab, oila va jamiyatning o’zaro hamkorligini ta’minlab, o’quvchining har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot maktab-oila hamkorligiga asoslangan ekologik tarbiya modeli nafaqat samarali, balki zamonaviy ta’lim talablariga mos keluvchi yondashuv ekanligini ko’rsatdi. Shu bois kelgusida bu yo’nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish va amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

#### **XULOSA**

O’quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish murakkab, ko’p bosqichli va uzluksiz pedagogik jarayon bo’lib, u faqatgina maktab doirasida emas, balki oila bilan uzviy hamkorlik asosida samarali amalga oshiriladi. Maktab va oila birgalikda harakat qilgan taqdirdagina o’quvchilarda tabiatga ongli munosabat, ekologik mas’uliyat va barqaror xulq-atvor shakllanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ekologik madaniyat nafaqat bilim berish orqali, balki kundalik hayotiy odatlarni shakllantirish orqali rivojlanadi. Masalan, suv va energiyani tejash, chiqindilarni to’g’ri boshqarish, tabiatga zarar yetkazmaslik kabi oddiy ko’nikmalar aynan oila muhitida mustahkamlanadi, maktab esa bu jarayonni ilmiy asosda qo’llab-quvvatlaydi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, ekologik madaniyatli yosh avlodni tarbiyalash — bu nafaqat ta’lim tizimining, balki butun jamiyatning muhim vazifasidir. Shu bois maktab va oila hamkorligini mustahkamlash orqali ekologik barqaror kelajakni ta’minlash mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdullayeva Sh. - “Ekologik madaniyatni shakllantirish muammolari”. – Ilmiy maqola, 2021.

2. Azimov D., Juraev E. - "Maktab va oila hamkorligining innovatsion shakllari" – "Innovatsiya" nashriyoti, Toshkent 2022.

3. Qo‘chqorov S. – "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" – "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2021.

4. Ziyaev Sh., Xudoyberganov U. – "Ekologik madaniyat va atrof-muhitni himoya qilish" – "O‘zbekiston" nashriyoti, Toshkent 2017.

5. O‘zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent 1992.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining "Ekologik ta’lim milliy dasturi". – Toshkent 2022.